



“TASDIQLAYMAN”

Davlat test markazi direktori

o'rinnbosari S.B.Radjabov

2022-yil 26 - may

## Oliy ta'lif muassasalariga kirish test sinovlari bo'yicha videoroliklar tayyorlash bo'yicha

### TALABLAR

(Eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartibi asosida o'tkaziladi)

2022-2023-o'quv yili uchun oliy ta'lif muassasalarining bakalavriat ta'lif yo'naliшlariga kirish test sinovlari jarayoni bo'yicha abituriyentlarga to'liq ma'lumot va tushuntirish berish maqsadida o'zbek va rus tillarida videoroliklar tayyorlash lozim.

Tayyorlanishi kerak bo'lgan videoroliklar ro'yxati:

- **chet tili bo'yicha onlayn test tizimi dasturidan foydalanish** (*chet tili imtihonini onlayn topshirish uchun [test.dtm.uz](#) saytidan foydalanish bo'yicha videoyo'rqnoma – 2D grafika asosida*);
- **talabalar o'qishini xorijiy davlatlardan O'zbekistonga ko'chirish uchun o'tkazilgan test sinovlari** (*2021-yilda talabalar o'qishini xorijiy davlatlardan O'zbekistonidagi davlat oliy ta'lif muassasalariga ko'chirish uchun o'tkazilgan test sinovlarining shaffof va adolatli o'tganini aks ettiruvchi infografikali videorolik – tasvirga olinadi va 2D grafikadan ham foydalaniladi*);
- **oliy ta'lif muassasalariga kirish uchun onlayn ro'yxatdan o'tish** (*[my.dtm.uz](#) sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tish bo'yicha – 2D grafika asosida*);
- **oliy ta'lif muassasalariga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi** (*abituriyentlarning test sinovi o'tkaziladigan hududga yetib kelishidan tortib test sinovini yakunlagunga qadar bo'lgan jarayonni to'liq tushuntirib berish uchun videorolik – tasvirga olinadi va 2D grafikadan ham foydalaniladi*);
- **test materiallaridan foydalanish** (*abituriyentlarga test topshiriqlari kitobi va javoblar varaqasidan foydalanishning barcha tartib-qoidalarini to'liq tushuntirib berish uchun videorolik – 2D grafika asosida*);
- **test sinovi uchun to'lovni amalga oshirish** (*test sinovlarida ishtirok etish uchun Click, Payme va UPAY kabi elektron to'lov tizimlari orqali to'lovni amalga oshirish bo'yicha videorolik – 2D grafika asosida*).

Tanlov g‘olibi va videoroliklar uchun qo‘yiladigan talablar:

- videoroliklar shu sohada ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan tayyorlanishi;
- unda rejissyor, operator, rassom, grim ustasi, chiroq ustalari kabi malakali ijodiy guruh ishlashi;
- videoroliklarning sifati yuqori bo‘lishi va telekanallarning barcha talablariga to‘g‘ri kelishi;
- videoroliklarni telekanallarda yoritish rejalashtirilgani sababli kadr orti matnlari malakali suxandonlar tomonidan o‘qilishi.
- barcha videoroliklar o‘zbek va rus tillarida tayyorlanishi;
- ishtirokchilardan takliflar bilan birga ssenariy va ssenariyga tegishli bo‘lgan rejissorlik raskadrovkasi talab etiladi;
- raskadrovska komissiya a’zolari to‘liq tasavvurga ega bo‘ladigan darajada ifoda etilgan bo‘lishi kerak.

Takliflar va ssenariylar buyurtmachi komissiya a’zolari tomonidan to‘liq o‘rganib chiqilib, eng yaxshi ssenariy va taklif yuborgan, xizmat sifati yuqori bo‘lgan firma tanlab olinadi.

To‘lov videoroliklar telekanallar tomonidan e’tirozsiz qabul qilinganidan so‘ng to‘liq to‘lab beriladi.

Shartnomaning **boshlang‘ich narxi** 60 000 000 (*oltmish million*) so‘m.

